

**OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINI ARALASH TA'LIM  
MUHITIDA INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH  
METODIKASI**

*Ko'makova Dilshoda Shirinqulovna*

*Toshkent viloyati, Chirchiq davlat pedagogika instituti*

*Ta'lim muassasining boshqaruv yo'nalishi 2-kurs magistiranti*

**Annotatsiya:** Maqlolada aralash ta'lism tushunchasi, uning rivojlanishi, hozirgi paytdagi ahamiyati hamda tutgan o'rni ko'rib chiqilgan. Shuningdek aralash ta'lism afzalliklari va yutuqlari hamda kamchiliklari keltirilgan. Ta'linda axborot texnologiyalarini ommaviy joriy etish ta'lism usullari va nazorat formati o'zgarishiga olib keladi va ta'lism tuzilmasida o'zgarishlarni talab qiladi. Bu yerda ta'lism berishning an'anaviy shakllaridan o'tish va axborot jamiyatida o'quv jarayonini tashkil etish zarurati mavjud bo'lib, bu ta'lism faoliyatida yangi ta'lism modellarining paydo bo'lishiga olib keladi.

**Kalit so'zlar:** Blended learning, aralash ta'lism, elektron ta'lism, an'anaviy ta'lism, onlayn rejim, onlayn platforma, o'qitish shakli, onlayn o'quv materiallari, mustaqil ta'lism

**Abstract:** The article examines the concept of mixed education, its development, modern meaning and role. Describes the advantages and disadvantages of blended learning. The massive introduction of information technologies in education will lead to a change in teaching methods and the format of control, and will also require changes in the structure of education. A departure from traditional forms of education and organization of the educational process in the information society is necessary. This leads to the emergence of new learning models in educational activities.

**Keywords:** Blended learning, e-learning, traditional education, online mode, online platform, learning form, materials online learning, self-education

Respublikamiz ta'lism tizimida olib borilayotgan islohotlar o'qitish tizimini jahon andozalariga moslashtirishni va eng samarali usullarga asoslanishni taqoza etmoqda. Elektron ta'lism jarayonini tashkillashtrish hozirgi zamon talabidir. Shuning uchun aralash ta'lism (Blended Learning) asosida ta'lism tizimi tashkil etishni yo'lga qo'yish ta'lism samaradorligini oshirishga olib kelishi shubhasiz. Bizning nazarimizda, bu borada aralash ta'lism ananaviy va elektron ta'lism tizimida o'qitish ishlarini takomillashtirish, ommalashtirish, aralash ta'lism bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasini chuqr o'rganish aralash ta'lism milliy modelini yaratilishiga imkon yaratadi.

Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim olishning internet texnologiyalariga asoslanganligini inobatga olgan holda, aralash ta'limni qo'llash metodikasini ishlab chiqish ahamiyatga molik masalalardan hisoblanadi.

Aralash ta'lim zamонавиј та'лимни нисбатан янги ва тобора оммалашиб борайотган шакли саналиб, онлайн о'кув материаллари hamda o'qituvchi rahbarligida guruhda ta'lim olishга asoslangan o'qitish shaklidir.



Elektron ta'lim qanchalik qulay bo'lmasin, ana'anaviy ta'lim natijasida olinadigan nutq va ijtimoiy-madaniy ko'nikmalarining rivojlanish darajasini bera olmaydi. Shunga qaramay elektron ta'lim an'anaviy ta'limga nisbatan samarali natija bermoqda. Buning natijasida an'anaviy ta'limning elektron ta'lim bilan birgalikdagi, ya'ni aralashgan holdagi turi samarali natija berishi yaqqol ko'rinoqda. Aralash ta'lim an'anaviy, masofaviy va ineraktiv ta'limning

birgalikda olb borilishidir. An'anaviy ta'lim insonlarda muloqot qobiliyatini rivojlantirib, ijtimoiylashrtirsa, elektron ta'lim bilim olish jarayonini tezlashtiriradi.

O'quv jarayoni odamlarning ehtiyojlariga mos keladigan va o'z shaklida mobil telefonga ega bo'lган zamонавиј modelga o'tishni talab qilmoqda. Ushbu model sizga ta'lim jarayonini takomillashtirish va bir vaqtning o'zida bir nechta muhim masalalarni hal qilish imkonini beradi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi turli sohalarda aralash ta'limni rivojlantirish va qo'llashga yordam beradi.

O'quv jarayonida AKTning vazifasi ma'ruzalar, videolar, taqdimotlar va hokazolarni uzatish va saqlash hisoblanadi. Aralash ta'limda ushbu funksiyalar o'quv jarayonida o'qituvchilar va talabalar o'rtasida o'zaro muloqot va shu muloqotni amalga oshirishga qaratilgan. Muloqot texnologiya orqali qo'llab-quvvatlanadi: suhbatlar, bloglar, videokonferentsiya, Skype va boshqalar.

AKT orqali ta'lim va aralash ta'lim o'rtasidagi farqning oxirgi mezonlari o'quv jarayonida o'qituvchining roli hisoblanadi. Avvalo, ta'lim jarayonida o'qituvchining o'rni axborot texnologiyalarining paydo bo'lishi bilan o'zgarib borayotganini aytish kerak. Bu endi klassik o'qituvchi emas, balki ta'lim muhiti bo'yicha yo'naltiruvchi yoki maslahatchidir. Aralash ta'limda o'qituvchining o'rni o'quv jarayonini tashkil etuvchi bo'lib, o'qituvchi talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etadi va qo'llabquvvatlaydi.

Blended learning (Aralash ta'lim) - bu kompyuter grafikasi, audio va video, interfaol elementlar va boshqalar kabi maxsus axborot texnologiyalaridan

foydalanadigan elektron o'qitish elementlari bilan sinfda o'qitishning an'anaviy shakllarining kombinatsiyasi.

Blended learning - onlayn o'quv materiallari hamda o'qituvchi rahbarligida guruhda ta'lif olishga asoslangan o'qitish shakli. Ushbu shakldagi o'qitish jarayonida talaba mustaqil ta'lif oladi, ammo ayni vaqtda unga guruh va o'qituvchi tomonidan yordam ko'rsatiladi.

Guruhli mashg'ulotlar davomida aralash o'qitish "blended learning"ning qo'llanilishi tufayli har bir talaba o'quv materiallarini o'zlashtirish borasida o'zida ro'y berayotgan ijobjiy o'zgarishlarni namoyon etgan holda muloqot ko'nikmalarini o'zlashtirib boradi, o'tilgan materiallarni takrorlaydi va yangi mavzuni o'rganishga tayyorlanadi. Aralash ta'lif ko'p holatlarda topshiriqlarga tayanadi va asosiy, muhim ma'lumotlar negizida tashkil etiladi, qo'shimcha materiallar esa talabaga onlayn platforma orqali uzatib beriladi. Talaba mustaqil ta'lif olar ekan, guruhning boshqa a'zolari bilan onlayn rejimda tashkil etilayotgan muhokamada ishtirok etish orqali hamkorlik qiladi. Auditoriyada va onlayn rejimda tashkil etilayotgan mashg'ulotlar vaqt miqdori bo'yicha o'zaro mos kelishi turlicha o'zgarib turishi mumkin. Ta'lifning turli bosqichlarida masofaviy va mustaqil ta'lif samarali ravishda qorishtirib yuboriladi.

Blended learning metodik yutuqlari va afzalliklariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Dars jadvalining qulayligi. O'quvchi o`ziga ma'qul bo`lgan vaqtda o'quv jarayoniga qatnashishi mumkin.
- Qulay foydalanish manzillari. O'quvchi internet kafe, uy, mexmonxona, ish joyida va boshqa joylardan o'quv jarayoniga qatnashishi mumkin.
- Qulay o`qish tempi. Ta'lif o`quvchilarining yangi bilimlarni tushunishi tempida o`tkaziladi.
- Qulay o`quv reja. O'quv rejani talabalarga individual va davlat ta'lif talablariga mos holatda tashkil qilish mumkin.
- Ma'lumotlar bazasini to`planishi. Oldingi o`qigan talabalar bilimlarini to`plash va undan foydalanish imkoniyati.
- Kurgazmali qulayliklar. Multimediya imkoniyatlaridan to`lik foydalanish imkoniyati.
- Malakali o`qituvchilarini tanlab ta'lif jarayoniga jalb qilish.
- O'quv resurslaridan kuniga 24 soat foydalanish ikmoni.
- Ta'lif harajatlarini nisbatan kamligi.

Ammo masofaviy ta'lifning salbiy tomonlari ham borligi haqida aytish lozim. Ularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

• O'qituvchi bilan jonli muloqotning yo'qligi. Ushbu sababdan talabalar asosan virtual holatdagi ta'lif turida emas, balki oddiy (kunduzgi va sirtqi) ta'lif turlarida o`qish istagida bo`lishadi.

• Davlat masofaviy ta'lif standartlari yo`qligi va natijada davlat nusxasidagi diplom berilmasligi. Shu sababdan ko`pgina masofaviy ta'lif kurslari bitiruvchilariga faqat ushbu kursni bitirganligi haqida sertifikat yoki guvoxnomalar berishadi.

• Virtual muhit va texnika ta'minot bilan bog`liqligi. Masofaviy ta'lif internet borligi, undan foydalanish narxi, tezligi va servislar mavjudligiga, maxsus kommunikatsion texnikalar mavjudligi va ular ishlashiga taalluqli.

• O'quv vositalaridan samarasiz foydalanish resurslarning isrof qilinishiga olib kelishi mumkinligi.

• Talabalar texnologiya haqida asosiy bilimga ega bo'lishlari va o'rganish istagi bo'lishi kerakligi.

• Yuqori texnologiyalar texnik xizmat ko'rsatishda ancha qimmatligi.

Masofaviy ta'lif nuqtai nazaridan aralash ta'lif o'quv jarayonini amalga oshirishda ko'proq moslashuvchanlikni (erkinlikni) ta'minlaydi. Moslashuvchanlik o'quv jarayonining bir necha jihatlarini o'z ichiga oladi. Birinchidan, o'qituvchi o'quv materiallarini taqdim etishda ko'proq erkinlikka ega. Endi u dars paytida barcha materiallarni tarqatishga majbur emas. O'qituvchi barcha materiallarni ikkiga ajratish imkoniyatiga ega, aytaylik, birini dars davomida berish uchun, boshqasini esa talabalar tarmoqdagi mustaqil ish yoki Internetdagi boshqa manbalar orqali olishlari uchun. Ikkinchidan, aralashtirilgan ta'lif o'qituvchilarga monitoring va baholashda ko'proq moslashuvchanlik va erkinlikni beradi. O'qituvchi onlayn test, post topshiriqlari, testlarni va hatto semestr oxirida yakuniy testni o'tkazish imkoniyatiga ega. Bunday imkoniyat o'qituvchi uchun ham talabalar uchun ham qulay. O'qituvchi o'quvchilarning faoliyatini baholashga ko'proq vaqt ajratadi va talabalar o'zlarining topshiriqlari bo'yicha istalgan joydan, darsga kelmasdan ishlashlari mumkin. Aralashtirilgan ta'lif jarayonida o'qituvchilar xatti-harakatlarni nazorat qila olmaydilar va bunday qilmasliklari kerak.

Hozirgi kunda axborot eng asosiy ishlab chiqaruvchi resurslardan biriga, iqtisodiyot va umuman jamiatning rivojlanish poydevoriga aylanmoqda. Yangi axborot kommunikatsion texnologiyalar hozirgi kunda eng dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelmoqda, sababi har bir sohani o'rganish, izlanish va tajriba ortirish uchun turli usullardan foydalanish kerak bo'ladi. Shuning ushun yangi axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqlikdir.

Respublikamizda olib borilayotgan islohatlarning tarkibida yuqori malakali mutaxassislarning roli benihoya kattadir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Ertangi kun yangicha fikrlay oladigan zamonaviy bilimga ega bo'lgan yuksak malakali mutaxassislarni talab etadi". Shu sababli xalqimizning boy intellektual merosi va

umumbashariy qadriyatlar, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalar asosida yuksak mutaxasislar tayyorlash tizimi ishlab chiqildi va jadal sur'atlar bilan hayotga tadbiq etilmoqda.

O'zbekistonda o'qitish texnologiyalari zamonaviylashtirish, jadallashtirish iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga qaraganda yanada dolzarb ahamiyatga ega.

Chunki hozirgi kunda milliy ta'lif tizimining salohiyati tizimli rivojlanishinig yanada yuqori pog'onasiga ko'tarilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, elektron ta'lif jarayonini tashkillashtrish hozirgi zamon talabidir. Shuning uchun blended learning (aralash ta'lif) asosida ta'lif tizimi tashkil etishni yo'lga qo'yish ta'lif samaradorligini oshirishga olib kelishi shubhasiz. Bizning nazarimizda, bu borada aralash ta'lif ananaviy va masofali ta'lif tizimida o'qitish ishlarini takomillashtirish, ommalashtirish, aralash ta'lif bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasini chuqur o'rganish aralash ta'lif milliy modelini yaratilishiga imkon yaratadi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar**

1. Абрамова Я.К. Смешанное обучение как инновационная образовательная технология // Перспективы развития информационных технологий. 2014. №17. С. 115-119.
2. Богоряд Н.В., Лысунец Т.Б. Изменение роли преподавателя в концепции смешанного обучения // В мире научных открытий. 2014. №3(51). С. 76-81.
3. Велединская С.Б., Дорофеева М.Ю. Смешанное обучение: секреты эффективности // Высшее образование сегодня. – 2014, №8. С. 8-13.
4. Долгова Т.В. Смешанное обучение – инновация XXI века Интерактивное образование: информационно-публицистический образовательный журнал/учредитель ООО «А-Приор». 2017, №5

### **References**

1. Abramova Ya.K. Blended learning as an innovative educational technology // Prospects for the development of information technologies. 2014. No. 17. S. 115-119.
2. Bogoryad NV, Lysunets TB Changing the role of the teacher in the concept of blended learning // In the world of scientific discoveries. 2014. No. 3 (51). S. 76-81.
3. Veledinskaya S.B., Dorofeeva M.Yu. Blended learning: secrets of efficiency // Higher education today. - 2014, No. 8. S. 8-13.
4. Dolgova T.V. Blended learning - an innovation of the XXI century Interactive education: informational and publicistic educational journal / founder of LLC APrior. 2017, no.5